

XIVA XONLIGIDA YASHAGAN AFG'ON AMIRI

Ro'ziboyev Anvarbek Shoyimardon o'g'li

Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi TDSHU

Ilmiy rahbar - X. Fayziyev

Toshkent, O'zbekiston

+998999640753

xorazmshoh1995@gmail.com

xorazmshoh1995a@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xiva xonligining ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan sahifalaridan biri bo'lgan, Afg'on amiri Abdurahmonxonning xonlikka kelish sabablari va tafsilotlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: "Shohidu-l-iqbol", Durroniylar, Barakzoilar, Sheralixon, shahzoda Abdurahmon.

Xiva nonligi va Afg'oniston o'rtasidagi munosabatlarning, bugungi kun tarix ixlosmandlariga ma'lum bo'lmagan jihatlari Muhammad Rizo Ogahiyning "Shohidu-l-iqbol" asarida ham bayon qilingan bo'lib, bu tarixiy dalillarda Muhammad Rahimxon Soniy (1864-1910) hukmronligi davrida Afg'oniston bilan aloqalar faollashgani aniq bo'lmoqda. Afg'onistonda 1880-1901-yillarda hukmronlik qilgan amir Abdurahmonning Xiva xonligida yashaganligi esa ko'pchilikka ayon ham emasdir. Qo'ng'irotlar sulolasi davrida xonlikning Afg'oniston bilan aloqalari XIX asr boshidan faollashgan bo'lib, bu tarixiy jarayonning ildizlari Muhammad Rahimxon I davriga (1806-1825-yillar) borib taqaladi. Muhammad Rahimxon I Afg'oniston shohi Durroniylar sulolasi vakili Mahmudshohga (Mahmudshoh Afg'oniston taxtini birinchi marta 1801-1803-yillarda, 1809-1818-yillarda ikki marta egallab davlatni boshqargan¹) ikkinchi marta taxtga chiqishida amaliy yordam ko'rsatgan. Bu aloqalar xonlikning Afg'oniston bilan chegaralarini xavfsizligini ta'minlagan degan xulosaga to'xtalsak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, Muhammad Rahimxon I davrida Murg'ob va Tajan daryolari oralig'i egallanib, Afg'oniston bilan chegara hududi vujudga kelgan edi.

XIX asr ikkinchi yarmida Afg'onistonda taxt uchun kurash kuchayib ketadi. Mazkur davrda Afg'onistonda Barakzoilar sulolasi hukmronlik qilardi. Afg'oniston amiri Do'stmuhammadxon (1826-1863-yillar) vafotidan keyin ("Shohidu-l-iqbol" asarida Do'stmuhammadxon vabo kasaliga chalinib vafot etgani qayd etilgan) taxtga o'g'li Sheralixon (1863-1879-yillar) chiqadi. ("Shohidu-l-iqbol" asarida Sheralixon amir Do'stmuhammadxonning inisi deb berilgan. Aslida Sheralixon amir

¹ Mannonov A. M, Abdullayev N. A, Rashidov R. R. Afg'oniston tarixi. - T.: «Barkamol fayz media» - 2018. 125-b.

Do'stmuhammadxonning o'g'lidir²). Do'stmuhammadxonning katta o'g'li Muhammad Azimxon Qobulda hokimiyatga ko'tariladi. Sheralixon uning ustiga qo'shin tortadi, natijada Azimxon Hindistonga o'tib ketadi. "Ulug' amir³"ning yana bir o'g'li Afzalxon Balxda hukmronlik qilardi. Sheralixon Qobulni egallagach, Balxga yurish qiladi. Ammo shaharni egallab bilmagach, inisi bilan sulh tuzadi. Lekin amir Sheralixon inisini nazorat ostiga oladi, ya'ni hech ishda ixtiyor bermaydi. Bundan tashqari Afzalxon o'g'li Abdurahmonni Buxoroga ketishini tayin etadi. Buxoroga borgan Afg'on shahzodasini amir Muzaffar kutib olib, ko'p iltifotlar ko'rsatadi. Bir yildan keyin Afg'onistonga qaytgan Abdurahmon Balxdan qo'shin to'plab, amakisiga qarshi kurash boshlaydi, Qobulni egallab otasi Afzalxonni taxtga chiqaradi. So'ng Qandahorni ham egallab, amakisi Muhammad Azimxonga topshiradi va o'zi Qobulga otasining xizmatiga qaytib keladi.

Afg'onistondagi bu voqealar "Shohidu-l-iqbol" asarida hijriy 1286-yil rabi-assoniy oyida, ya'ni milodiy 1869-yil iyul oyida bo'lib o'tganligi qayd etiladi. Yuqoridagi tarixiy dalillardan ayon bo'lyabdiki, Abdurahmonxon Afg'on taxtini to'liq qo'lga olishidan (1880-yil) oldin ham taxtni egallaganligi va otasini taxtga chiqarganligi anglashilmoqda.

Bu voqealardan keyin hijriy 1286-yil jumadul avval (milodiy 1869-yil avgust) oyida vaboga chalingan Afzalxon vafot etadi. Abdurahmonxon Qandahordagi amakisi Muhammad Azimxonni Qobulga olib kelib, otasining o'rniga amir qilib ko'taradi, o'zi esa Balx shahriga qaytadi. Hirotda hukmronlik qilayotgan Sheralixon qo'shin tortib, Qandahor va Qobulni egallab oladi, keyin Balxga yurish qiladi. 1869-yil Zurmatda bo'lib o'tgan hal qiluvchi jangda Sheralixon inisi Azimxon hamda jiyani Abdurahmonni yengib shaharni egallaydi⁴.

Jangda mag'lub bo'lgan shahzoda Bo'luj, Seyiston, Qayn shaharlari orqali Mashhad shahriga boradi. Bu shahar hokimi, Eron shahzodasi Hamza Mirzoga mehmon bo'lib, bir necha kundan keyin Marvga yo'l oladi, so'ngra Xiva shahriga yetib boradi. Hijriy 1286-yil jumadul soniy oyining yigirma beshida, payshanba kuni (milodiy 1869-yil 2-oktabrda) Xiva xoni Muhammad Rahimxon II huzurida bo'ladi. Feruz Afg'on shahzodasiga iltifotlar ko'rsatib, kundalik sarf-xarajatlari uchun mablag' ajratib beradi.

Abdurahmonxon 20 kundan ortiq Xivada yashagach, Buxoroga ketish uchun xondan ruxsat so'radi. Chuni, Afg'on shahzodasi qo'shinining katta qismi amirlikka qochib o'tgan edi. Feruz unga rozilik berib, yo'l taradudiga ketadigancha ot, tuya va oziq-ovqatlarni ham jam qilib beradi. Abdurahmonxon Xiva xoniga minnatdorchilik bildirib, 1286-yil rajab oyining avositida (milodiy 1869-yil no'yabr oyining boshlarida)

² Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўгли Огахий. Асарлар. 7 ж. - Т.: "Шарк" нашириёти. 2019-й. (Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, изоҳлар муаллифи филология фанлари доктори Нафас Шодмонов). 204-б.

³ Mannonov A. M, Abdullayev N. A, Rashidov R. R. Afg'oniston tarixi. - T.: «Barkamol fayz media» - 2018. 135-b.

⁴ Mannonov A. M, Abdullayev N. A, Rashidov R. R. Afg'oniston tarixi. - T.: «Barkamol fayz media» - 2018. 135-b.

Buxoroga qarab yo'l oladi. Oradan o'n bir yil o'tib, ya'ni 1880-yilda Abdurahmonxon yana taxtni egallaydi va 1901-yilgacha Afg'onistonni idora qiladi.

Muhammad Rizo Ogahiyning "Shohidu-l-iqbol" asarida bayon qilingan bu ma'lumotlar xonlikning tashqi siyosati Afg'oniston bilan ham uzviy bog'langanligini ko'rsatadi. Abdurahmonxonning Xivaga kelishi Afg'oniston ham xonlik bilan do'stona siyosat tarafdori bo'lganini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мухаммад Ризо Эрниёзбек ўгли Огахий. Асарлар. 7 ж. - Т.: "Шарк" нашириёти. 2019-й. (Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, изохлар муаллифи филология фанлари доктори Нафас Шодмонов). 288 б.

2. Mannonov A. M, Abdullayev N. A, Rashidov R. R. Afg'oniston tarixi. - Т.: «Barkamol fayz media» - 2018. 344 б.